



NAZAR ESHONQULNING „MAYMUN YETAKLAGAN ODAM“
HIKOYASIDA OBRAZLAR TALQINI

Gulnora Rahmatova

GulDU, O'zbek filologiyasi yo'nalishi
2-bosqich talabasi

O.Fayzullayeva

Ilmiy rahbar: f.f.d.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15480196>

Annotasiya. Mazkur maqola Shukur Xolmirzayevning hikoyalari, ulardagi o'ziga xoslik, obrazlarning rang-barangligi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda yozuvchi mahorati muammosiga ham e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Shukur Xolmirzayevning ijodida hikoya janri yaqqol ajralib turishi, ularning boshqa ijodkorlarning hikoyalaridan tubdan farq qilishi xususida ham fikr yuritilgan. Qolaversa, hikoyadagi ramziy obrazlar alohida ahamiyatga ega ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'z: hikoya, sarlavha, obrazlar, ramzlar, badiiy tajriba, badiiy mahorati, badiiy uslubi, kompozitsiya, pafos, mafkura va h.k.

Nazar Eshonqul – 15-iyun 1962-yil Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yozuvchi, senarist, telejurnalist. Nasrimizning o'tgan asr 80–90-yillardagi yanglanishi odatiy an'anaviy yo'ldan birmuncha o'zgacharoq kechdi, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida G'arbda paydo bo'lgan adabiy oqimga o'xshash sifatlar paydo bo'ldi. Shu o'rinda yozuvchi Nazar Eshonqul o'zbek nasriga, ayniqsa, hikoyachiligiga o'zgacha ovoz va ruh olib kirdi. U mana shu janrni Sharq va G'arb adabiyoti an'analari bilan uyg'unlashtirayotgan adiblar qatoridan joy olgan. Uning dastlabki asari – „Urush odamlari“ qissasi (1989). Shundan so'ng „Momoqo'shiq“ (1991), „Yalpiz hidi“ (1996) „Ufq ortidagi quyosh“, „Maymun yetaklagan odam“ (2004), „Shamolni tutib bo'lmaydi“ (2005), „Shaftoli guli“ (2011) nomli bir qator kitoblari nashr etildi.

Nazar Eshonqulning **“Maymun yetaklagan odam”** hikoyasi 1989-yil 6-yanvar kuni “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasida bosilib chiqdi. Ushbu kichik hikoya syujeti va voqealar rivojining o'zgachaligi kitobxonni e'tiborini jalb qilgan. Asar matni bilan tanishmasdan oldin, birinchi navbatda, kitobxon lisonida munozarali fikrlar paydo bo'ladi. Yozuvchi nega aynan bunday sarlavha tanladi? Aslida, odam maymunni yetaklayaptimi yoki maymun odamni? Bu o'rinda o'zbek tiliga xos so'zlarning ma'no qirralari o'z aksini topgan. Asarning sarlavhasi uning kompozitsiyasida muhim rol o'ynab hikoyaning mazmunini o'zida namoyon qilgan. Kitobxon hikoyani o'qib borar ekan, voqealar rivojidan





savollariga javob topa oladi. Asar syujeti sayyor syujet bo'lib, yozuvchi hikoyani an'anaviy qolip asosida emas, balki yangi uslub, yangi qolip asosida yozadi. Voqealar ekspozitsiyadan boshlangan. "Bu voqea uch yillar oldin bo'lgan edi. Shu ko'chadan bir uyni ijaraga olib ko'chib kelganimda cholning sharti ketib, parti qolgandi, u ko'chaning muyulishida men egallagan uyga qo'shni hovlida yashardi. Uni birinchi marta uyining oldidagi eski o'rindiqda chuqur o'yga tolgan holda ko'rgan edim... " Hikoya boshlanishidayoq, cholning qiyofasi, ayniqsa, hikoyaning noan'anaviy pafosini o'zida mujassamlashtirgan. "U qoboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo'lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan, ko'rimsiz yuzi badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortar edi. Ko'zlari hissiz va ifodasiz, egnida elliginchi yillarning andozasida tikilgan ancha salobatli kitel, baqbaqasi osilib turgan holda o'ychan o'tirardi..." Yozuvchi ushbu chizgilar orqali kitobxon xayolida ko'rimsiz, hayotning butun chalkashliklariyu tashvishlariga qo'l siltagan, "yuzi badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab" ketadigan, "go'yo atrofidagi olamdan endi hech qanday iltifot kutmay qo'ygan, hech narsaning qizig'i qolmagan" o'zgacha qahramon portretini chizib beradi.

Shu o'rinda yana bir narsani ta'kidlab o'tish zarurki, hikoyaning "yorqin", "iliq", "jozibador" tasvirlar bilan emas, balki "xira", "qorong'u" tasvirlar bilan boshlanayotganligi ham kitobxonni o'ziga jalb etadi. Hikoyaning butun boshli mazmuni chol chizgan ikki suratdan namoyon bo'ladi. Cholning birinchi suratida yosh navqiron ko'zlarida qat'iyat va ishonch aks etgan. Yigitning o'rmondan bo'yniga tarang qilib tortilgan zanjir osilgan maymunni yetaklab chiqishi tasvirlangan bo'lsa, ikkinchi suratida maymun umidsiz ko'zlariga g'am cho'kkan munkaygan bir cholni o'rmon sari yetaklab ketardi. ko'rinib turganidek, bu safar cholning bo'ynida zanjiri yo'q edi. Davr, inson o'zgardi, ammo, makon va maymun o'zgarmadi. Hikoyadagi barcha obrazlar va voqealar ramziylik kasb etgan. Birinchi suratdagi yosh odam cholning yosh, navqironlik davriga ishora bo'lsa, maymun ijtimoiy mafkura, yomonlik ramzi. Ikkinchi suratdagi maymun yetaklab ketayotgan chol esa cholning qarib, hayotning o'nqir-cho'nqirliklariga, qiyinchiliklariyu jamiyki yomon illatlarga bo'yin eggan davri, o'mon esa inson va jamiyat, ong va omgsizlik, erkinlik va qaramlik, insoniylik va yovvoyilik o'rtasidagi murakkab ziddiyatlarni ifodalab kelgan ramzlar hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda suratdagi yosh, qora mafkuraga bo'yin egmaydigan, o'z haqiqatlari bilan jamiyatga qarshi chiqa oladigan, qat'iyatli yigit oxir-oqibat o'ziga nisbatan ishonchsiz umri turli aldovlar va yupanchlar bilan behuda o'tgan, o'y-xayollari mavhumlikka cho'mgan, shavqatsiz mafkuraga





bo'yin eggan, hayot "o'yinlari"ga tan berib, o'ziga kerakli xulosalarni ola olgan kimsaga aylanishi tasvirlangan. Hikoyada cholning oqibatsiz o'glining tasviri ham bor. Butun hayotini qora bo'yoqlarga ko'mgan insonning farzandi qanday ham bo'lsin, albatta shunga o'xshash qimorboz, kissavur va qotil bo'ladi-da.

Jamiyat shunday, unda yaxshilar ko'p bo'lsa, yaxshilarning davomchilari ham ko'p bo'ladi, agar jamiyatda cholga o'xshash hayotning zug'umlariga taslim bo'lgan shaxslar ko'p bo'lsa, ularning avlodlari ham shu tarzda davom etaveradi. Hikoyadagi talaba obrazi va chol o'zaro ziddiyatda bo'lib, talabaning yorqin fikrlarini o'qish jarayonida fikrimiz cholning fikrlaridagi "qoralik"dan oq bo'yoqlarga almashadi va hayotda yomonlar bilan birga yaxshilar, "qoralar" bilan birga "oqlar" ham borligini yana bir bor eslatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inson doimo o'ziga bo'lgan qat'iyat va ishonch bilan yashamog'i va o'z maqsadi sari hech qayoqqa chalg'imasdan intilmog'i darkordir. Hayotdagi qiyinchiliklar, baland-pastliklar, to'siqlar inson fikrini o'zgartirishga, ishonchining yo'qolishiga sabab bo'lmasligi kerak. Zero, hayot ham yorqin va jilvakor fikrlar, insonlar bilan go'zaldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2004.
2. Eshonqul N. Ijod falsafasi. Mendan – mengacha. – T.: 2018.
3. Norbekova A. Nazar Eshonqul hikoyalari uslubi. "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi misolida" ilmiy maqola.
4. Kholbekovna, F. O. (2021). The issue of artistic idea in poetry. European Scholar Journal, 2(4), 233-236.
5. Fayzullayeva, O. (2022). General Typological Characteristics Of Lyric Cycles. Science and innovation, 1(B5), 231-236.
6. Fayzullayeva, O. (2024). THE ISSUE OF FORM AND CONTENT IN LYRIC CYCLES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 2(1), 55-60.
7. Xolbekovna, F. O. (2021). POETICS OF UZBEK CYCLE SONNETS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(6), 394-402.
8. Fayzullayeva, O. X. (2020). Diversity in writing Uzbek sonnets. Theoretical & Applied Science,(4), 627-633.
9. Kholbekovna, F. O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi's poetry. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 332-340.
10. Kholbekovna, F. O., & Oglu, E. B. J. (2021). Development and Improvement of Cyclicity. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 12049-12054.
11. Fayzullayeva, O. (2023). LYRIC IMAGE OF" I" IN CYCLES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6 Part 3), 118-125.





12. Faizullayeva, O. H. (2022). Artistic Conditionality and Poetic Function of Signs in Lyrical Series. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 20-29.
13. Kholbekovna, F. O., & Dehqonovna, D. G. (2020). The Hero Issue In The Lyrics. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(8), 3409-3413.
14. Mamatkulov, M., & Fayzullayeva, O. (2024). Expression Of Symbols And Allegorical Images In Lyric Cycles. Modern Science and Research, 3(1), 1-7.
15. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi "Tohir And Zuhro". Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.
16. Epic, M. M. S. S. (2020). Bakhrom and Gulandom" and the Folk Tales. Scientific Reports of Bukhara State University, 5(81), 34-38.

